

## **Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarning yo'nalishlari va mazmuni**

**M.Salaeva,  
UrDU dotsenti p.f.n.**

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida o'ziga xos pedagogik nazariyalar maktabi vujudga keldi. Mazkur pedagogik nazariyaning tadrijiy rivojlanishi bu davrda yetakchi bo'lgan millatning ijtimoiy, ilmiy tafakkur darajasini yaqqol ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik fikrlarning taraqqiyoti davlat tomonidan ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmaga bevosita bog'liqdir. Chunki ijtimoiy buyurtmada davlat va jamiyat ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy ehtiyojlari ta'lim orqali qondirilgan ekan, xuddi shu ta'lim tizimining ilmiy asoslanishiga zaruriyat mavjud.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida insonparvar, demokratik xarakterdagi uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. U birinchi navbatda shaxsning ma'naviyati, qobiliyati, iqtidori, salohiyatini ro'yobga chikarish, uni amaliyotda namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratildi. Bu esa pedagogika fanining yangi metodologiyaga tayanilgan holda rivojlanishiga yo'l ochdi. Bu o'z navbatida pedagogik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirdi. Pedagogika ilk bor shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasini ishlab chiqishga yo'naltirildi. Bu o'z navbatida, shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Masalaning bunday tus olishi pedagogika nazariyasi va tarixi amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda rivojlantirish imkonini berdi. Chunki pedagogika fani uchun ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etilgan o'quvchi hamda talabalar o'zlashtirgan bilimlar hamda ularning intellektual rivojlanganligi, axloqiy sifatlarni qay darajada egallaganliklari muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari haqida fikr yuritarkan, xalqimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiyaviy merosni tiklash, xalqni o'z madaniyati, an'analari, ma'naviy, axloqiy, ma'rifiy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari, tili, adabiyoti va san'atidan bahramand qilish, buning uchun esa, zarur shart-sharoitlar yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy asoslarni barpo etishni dolzarb vazifa qilib qo'ydi.

Mustaqil fikrlaydigan, o'z huquqi va vazifalarini to'la anglagan, vatanparvar, fidoiy, bilimdon – yangilangan ijtimoiy ongga ega bo'lgan barkamol shaxsni shakllantirish islohotlarning markaziy masalasi qilib qo'yildi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi fani uchun ham, amaliyoti uchun ham ta'lim oluvchilar shaxsi bosh qadriyatga, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish yetakchi maqsadga aylangach, pedagogik nazariyaning mazmun-mohiyati tubdan o'zgardi.

Xullas, mustaqillik in'om etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy shart-sharoitlar va imkoniyatlar asosida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlanib borayotgan pedagogik fikrlar ham O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lib, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun ham pedagogika O'zbekiston Respublikasida ilmning ustivor sohasiga aylandi. “Shu bois, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, 1997 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ma'naviyat, ta'lim-tarbiya sohasidagi eng muhim vazifalarga to'xtalar ekan, - mamlakatimiz istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanok, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda”.<sup>1</sup>

Shuningdek, pedagogika fani sohasida xalq etilishi zarur bo'lgan quyidagi muhim vazifalar belgilandi: sobiq sho'ro davridan qolgan mafkuraviy qarashlardan voz kechish, ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni amalga oshirish, zamonaviy bilimga ega o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoni, mazmuni, darsliklar sifatini, o'quvchilarga beriladigan bilimlar hajmini aniqlash, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini yangidan barpo etish, oliy o'quv yurtlarida zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratishdan iborat.

Pedagogika nazariyasini boyitish va barkamol shaxsni shakllantirish jarayoni ilmiy metodik jihatdan ta'minlanibgina qolmasdan, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz pedagogika fanida ta'lim tizimi hamda o'quv jarayonini boshqarish – pedagogik menejment tizimi vujudga keldi. Ta'limning yangi

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараккиятининг пойдевори. – Т.: “Шарк” 1997, 5-бет.

shakllari, liberallashtirish imkoniyatlari, shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish asoslari ishlab chiqildi.

Ajdodlarimizning boy pedagogik merosini o'rganish sohasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish yo'nalishidagi izlanishlar;
2. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash yo'nalishidagi tadqiqotlar;
3. Ta'limning ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo'nalishlar;
4. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish yo'nalishidagi ishlar;
5. Ta'lim tizimi va o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo'nalishidagi tadqiqotlar;
6. Pedagogika tarixi yo'nalishidagi tadqiqotlar;
7. Xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar;
8. Xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganishga oid tadqiqotlar;
9. O'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar;
10. Kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar;
11. Oila tarbiyasi to'g'risidagi tadqiqotlar;
12. Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim yo'nalishidagi izlanishlar;
13. Barkamol avlodni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar;
14. Huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta'lim-tarbiyaga oid izlanishlar;
15. O'quvchi-talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar;
16. Axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo'nalishidagi tadqiqotlar;
17. Xususiy metodikaga oid ishlar.

Mustaqillik yillarida pedagogikaning xususiy tarmoqlari rivojlandi. Pedagogik prognostika, tashxislash, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy-pedagogika, andropedagogika, difektologiya, inklyuziv ta'lim sohasida izlanishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda pedagogika fani oldida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud:

- Mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, huquqiy yetuk shaxsni shakllantirish;
- Darsliklarning yangi tipologiyasini yaratish;
- Pedagogikaning xususiy tarmoqlarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish;
- Yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning innovatsion tizimini yaratish;
- O'qituvchining ta'lim jarayonini loyihalash sohasidagi bilim va mahoratini oshirish;
- O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va muntazam rivojlantirish orqali, ularni kasbga yo'llashning yangicha texnologiyalarini yaratish;
- O'quvchilar bilimini baholash imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni rivojlantirish.

Bugungi kunda pedagogika fani oldida:

1. Yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish jarayonida ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan o'quv vositalari, usul va metodlarini qo'llash imkoniyatini yaratish.
2. Yoshlarni ma'naviy-axlokiy jixatdan tarbiyalashda milliy qadriyatlar, an'analar, madaniy boyliklar, o'zbek xalqining urf-odatlarini singdirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish.
3. Shaxsga yo'naltirilgan uning ko'pfaoliyatliligiga asoslangan o'quv-biluv jarayonini ilmiy metodik jihatdan ta'minlash.
4. Pedagogika tarixi sohasida fundamental tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish.
5. Tarbiyaviy ishlarning yangicha mazmuni, shakllarini belgilab berish kabi dolzarb vazifalar o'z yechimini kutmoqda.

Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida pedagogika nazariyasi va tarixi sohasida nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, DTSlari takomillashtirildi, o'quv dasturlari va o'quv metodik majmualar yaratildi, uzluksiz metodik xizmat ko'lami kengaytirilib, qo'llanmalar, ilmiy metodik tavsiyalar va monografiyalar ishlab chiqildi.

1. O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgach, pedagogika mustaqil fan sifatida shakllandi hamda ilmning ustuvor sohasiga aylandi.

2. Mustaqillik yillarida ilk bor pedagogika ilmida o'zbek o'quvchisi va talabasining milliy ruhiyati, mintaliteti, o'ziga xosligi, imkoniyatlari hisobga olindi va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida ularga ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi.

3. Mustaqillik yillari pedagogika fanining metodologik asosi sifatida milliy g'oya, o'zbek xalqining ko'p asrning ma'naviy-madaniy, pedagogik merosi, qadriyatlari, falsafiy yondashuvlar, dialektik bilish nazariyasi xizmat qila boshladi.

4. Mustaqillik yillarida ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari ob'ektiv ilmiy-pedagogik yondashuvlarga tayanilgan holda vujudga keltirildi.

5. Mustaqillik yillarida pedagogikaning yangi tarmoqlari: pedagogik antropologiya, falsafiy-pedagogika, pedagogik prognostika, ijtimoiy-pedagogika, pedagogik-diagnostika, statistik pedagogika sohasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi.

6. Shuningdek mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar keng ko'lamli bo'lib, ularni quyidagi bir qator yo'nalishlarga mujassamlashtirish mumkin: ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish yo'nalishidagi izlanishlar; ta'lim mazmunini modernizatsiyalash yo'nalishidagi tadqiqotlar; ta'limning ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo'nalishlar; yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish yo'nalishidagi ishlar; ta'lim tizimi va o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo'nalishidagi tadqiqotlar; pedagogika tarixi yo'nalishidagi tadqiqotlar; xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar; xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganishga oid tadqiqotlar; o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar; kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar; oila tarbiyasi to'g'risidagi tadqiqotlar; maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim yo'nalishidagi izlanishlar; barkamol avlodni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar; huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta'lim-tarbiyaga oid izlanishlar; o'quvchi-talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar; axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo'nalishidagi tadqiqotlar; xususiy metodikaga oid ishlar va h.k.